

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH USLUBIYOTI

Jumayeva Xanifa Xo'jakeldiyevna, Chariyeva Oliya Ismayilovna
Surxondaryo viloyati Angor tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanadigan interfaol metodlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: uslubiyot, jarayon, ilm-fan, poydevor, chrxpalak, darvoza, vagoncha.

Bugungi kunda O'zbekistonning jahon miqyosida munosib o'rin egallashi uchun ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy yo'nalishlarda g'oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun biz tarixiy bir davrda -xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalombor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda mana shunday intilishlar bilan yashayotganimiz, ilm-fan, texnika, san'at, adabiyot sohasida erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgan-bunday imkoniyatlarni barchasini aynan mustaqillik berganini hammamiz chuqur anglaymiz. Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda, e'tirof etmoqda.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi. Endi pedagog - o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi, o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi, kompyuter-o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis, ta'lim natijalarini nazorat qilishni talab etadi.

Quyida interfaol usullardan ba'zilarini taqdim etishni joiz topdik.

“Darvoza” usuli. Bu usulda 2 nafar o'quvchi qo'llarini birlashtirib, darvoza shaklida turadi. Ularning orasida o'quvchilar uchun tayyorlangan meva va sabzavotlarga tegishli rasmi yoki o'yinchoq bo'ladi. (**Masalan: anor, uzum, olma, shaftoli, nok, baqlajon, sabzi**).

O'qituvchi tomonidan ishtirokchilariga tarqatmalar berildi. So'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilish, so'rog'ini to'g'ri qo'yish, unga egalik qo'shimchalarini qo'yib aytish topshirig'i beriladi. Ularga to'g'ri javob bergan o'quvchi darvozadan o'tib, xohlagan meva yoki sabzavotni oladi va u qanday maza – tamga ega ekanini ham aytib o'tadi.

“Quvnoq vagonchalar” usuli. Bunda poyezd bosh qismiga mavzu nomi yoziladi. Vagonlariga o'quvchilar mavzu haqidagi bilimlarini yozadilar. Bu usul mavzuni mustahkamlashda qo'llanadi.

“Charxpalak”. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatishdir.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta‘lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta‘lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta‘lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta‘lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta‘lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta‘lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta‘lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Xullas, hozirgi davr talabi darslarda oddiylikdan voz kechish va izlanishni, yangiliklarni kashf etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. 1995-yil.
2. Ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. 2001-yil.